

## IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 763,0 mlrd. so‘m, (dollar ekvivalentida 973,9 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,6 foizni tashkil qildi.




### Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi (2022 yil yanvar-dekabr)

	Jami	shu jumladan: mulkchilik shakllari bo‘yicha:	
		davlat	nodavlat
Jami investitsiyalar, mlrd. so‘m	10 763,0	1393,8	9 369,2
<i>shu jumladan: moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>			
davlat byudjeti mablag‘lari	1 044,5	992,0	52,5
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	161,1	161,1	-
korxonalar va aholi mablag‘lari	3 199,2	178,3	3 020,9
chet el investitsiyalari va kreditlari	4 785,9	48,3	4 737,6
bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	1 572,3	14,1	1 558,2
Tiklanish va taraqqiyot fondi	-	-	-

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta‘minot tizimini qo‘llab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan.



2022 yilning yanvar-dekabr holatiga alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi  
(umumiy hajmga nisbatan foizda)



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Ishlab chiqarish sanoati
- Qurilish
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash
- Turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalarga qarish sanoati
- Boshqa faoliyat turi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

(mlrd. so'm)

	Yanvar-dekabr			
	2021 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2022 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>9 233,6</b>	<b>100,0</b>	<b>10 763,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>				
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 647,1	17,8	1 816,5	16,9

davomi

	Yanvar-dekabr			
	2021 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2022 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda
tog‘-kon sanoati	129,9	1,4	1 883,0	17,5
ishlab chiqarish sanoati	3 215,7	34,8	3 522,1	32,7
elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	340,5	3,7	436,3	4,1
suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	495,3	5,4	443,0	4,1
qurilish	320,3	3,5	195,6	1,8
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	627,1	6,8	373,3	3,5
tashish va saqlash	96,8	1,0	94,5	0,9
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	42,5	0,5	24,8	0,2
axborot va aloqa	327,9	3,6	216,3	2,0
moliyaviy va sug‘urta faoliyati	21,4	0,2	52,9	0,5
professional, ilmiy va texnik faoliyat	9,5	0,1	4,4	0,0
ta‘lim	294,3	3,2	379,7	3,5
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	144,8	1,6	137,5	1,3
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	106,7	1,2	576,8	5,4
san‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	62,0	0,7	38,7	0,4
boshqa faoliyat turlari	1 351,8	14,5	567,6	5,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida – 1 883,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 17,5 %), ishlab chiqarish sanoatida – 3 522,1 mlrd. so'm, (32,7 %) shundan oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda 376,2 mlrd. so'm (3,5 %), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishda – 310,5 mlrd. so'm (2,9 %), nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishda – 1 691,9 mlrd. so'm (15,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 436,2 mlrd. so'm (4,1 %), qurilishda – 195,6 mlrd. so'm (1,8 %), tashish va saqlashda – 94,5 mlrd. so'm (0,9 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 373,3 mlrd. so'm (3,5 %), axborot va aloqada 216,3 mlrd. so'm (2,0 %), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 4,4 mlrd. so'm, ta'limda – 379,7 mlrd. so'm (3,5 %), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 576,8 mlrd. so'mlik (5,4 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 4 786,0 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 109,1 foizni tashkil qildi.




#### Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi (2022 yilning yanvar-dekabrida)

	Umumiy hajmi (mlrd. so'm)	Shu jumladan:	
		davlat kafolati ostida	to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar
<b>Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar</b>	<b>4 786,0</b>	<b>429,9</b>	<b>4 356,1</b>
shu jumladan:			
davlat	48,3	48,3	-
nodavlat	4 737,7	381,6	4 356,1

Hisobot davrida viloyat bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi 44,0 foizni tashkil qildi.



Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 32,7 foizni tashkil qilgan va 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,1 foizga kamaygan, mos ravishda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 16,9 foizni tashkil qildi.



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investitsiyalar tarkibi





2022 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ifodalangan

	<i>Investitsiyalar hajmi mlrd.so‘m</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshi (ming so‘m)</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>10 763,0</b>	<b>108,6</b>	<b>7 374,5</b>	<b>106,1</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	2 334,5	110,1	12 332,4	107,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	193,7	138,2	4 061,1	135,9
Baxmal	605,5	95,9	3 672,0	93,6
G‘allaorol	917,0	169,3	5 066,5	165,8
Sharof Rashidov	864,6	82,6	3 699,6	80,4
Do‘stlik	175,0	101,6	2 561,5	99,8
Zomin	1 076,7	100,3	6 213,1	97,3
Zarbdor	245,5	101,2	2 682,5	98,2
Zafarobod	248,1	67,4	4 762,2	68,6
Mirzacho‘l	239,7	106,1	4 439,5	100,3
Paxtakor	181,2	108,3	2 311,6	107,0
Forish	3 572,9	116,1	37 178,3	114,2
Yangiobod	108,6	100,6	3 719,7	99,3

#### Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

Uy-joy qurilishida 576,8 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 5,4 foizni tashkil qildi.



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari

	Barcha manbalar hisobidan			
	Foydalanishga topshirildi		2021 yil yanvar-dekabriga nisbatan foizda	
	jami	shu jumladan: qishloq joylarda	jami	shu jumladan: qishloq joylarda
Uy-joy, umumiy maydoni ming kv.m	523,0	289,2	104,3	88,5
<i>undan:</i>				
yakka tartibdagi uy-joylar	507,0	280,9	102,7	86,7
yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda	16,0	8,3	207,7	319,2
Ambulator-poliklinika muassasalari, bir smenadagi qatnov	500	100	185,1	83,3
Umumiy ta'lim va maxsus maktablar, o'quvchilar soni	8 017	4 429	231,8	219,4
Suv tarmoqlari, km	583,5	503,9	120,0	117,2
Gaz tarmoqlari, km	28,7	14,4	82,9	74,2

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 523,0 ming kv m bo'lgan 2 373 mingta uy yoki 2 670 mingta kvartira (2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 104,3 %), shu jumladan qishloq joylarida 289,2 ming kv m (88,5 %) maydonga ega 1386,0 mingta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 583,5 km suv tarmoqlari (503,9 km qishloq joylarda) va 28,7 km gaz tarmoqlari (14,4 km qishloq joylarda) ishga tushirilib, mos ravishda 2021 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 120,0 va 82,9 foizni, qishloq joylarda esa bu ko'rsatkich suv tarmoqlari 117,2 foizni, gaz tarmoqlari 74,2 foizni tashkil qildi.

Suv tarmoqlari qurilishiga 229,1 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 1,4 mlrd. so'm (0,6 %) va chet el investitsiyalari krediti mablag'lari hisobidan 0,04 mlrd. so'm (0,1 %) hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 227,6 mlrd. so'm, (umumiy hajmning 99,3 %) o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 0,5 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 0,5 mlrd. so'm (umumiy hajmning 100,0 %) o'zlashtirildi.



### Qurilish faoliyati

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 3 431,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 106,5 foizni tashkil etdi.

#### Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish ishlari tarkibi,

mlrd. soʻmda


	yanvar-dekabr	
	2021 yil	2022 yil
<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>3 070,7</b>	<b>3 431,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	59,9	35,3
nodavlat	3 010,8	3 396,0

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 3 396,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 98,9 foizini tashkil qildi.




Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish tashkilotlarining oʻz kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)

2021 yil yanvar-dekabr



2022 yil yanvar-dekabr



■ Davlat mulki

■ Nodavlat mulki



**Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi**


Qurilish ishlari umumiy hajmining 81,2 foizi binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 12,0 foizi fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 6,8 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan umumiy hajmdan 81,3 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida Jizzax viloyati bo‘yicha jami qurilish ishlari hajmi 3 431,3 mlrd. so‘m nodavlat sektorining ulushi 98,9 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 81,3 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga 18,7 foizi esa, kapital, joriy ta‘mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.



**2022 yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘mda**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 81,2 foizni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatgichga nisbatan 0,3 foiz punktga kamaygan.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 12,0 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foiz punktga kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga 6,8 foizi to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 0,6 foiz punktga ko'paydi.



2022 yil yanvar-dekabr oylarida tuman(shahar)lar kesimida qurilish ishlarining korxonalar toifasi bo'yicha ulushi (jamiga nisbatan % da)



Yirik pudrat korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi – 5,9 foizni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining – 72,9 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa, – 21,2 foizga qurilish ishlari bajarildi.

Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumaniga to'g'ri keldi – 86,0 foiz. Mazkur hududda norasmiy sektorning ulushi – 14,0 foizni tashkil etdi.